



O'ZBEK-QORAQALPOQ ADABIY ALOQALARI: AN'ANA, TA'SIR VA TARJIMA MASALALARI

Abdullayev Xotamjon Xamroyevich

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti O'zbek adabiyoti kafedrasida assistenti

Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: abdullaevhotamjon0719@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda o'zbek va qoraqalpoq xalqlari o'rtasidagi ko'p asrlik adabiy aloqalar, ularning tarixiy ildizlari hamda taraqqiyot bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, adabiy an'ana, adabiy ta'sir va badiiy tarjimaning ikki qardosh xalq adabiyotlarini yaqinlashtirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Tarjimachilik sohasidagi yutuqlar bilan bir qatorda mavjud muammolar ham ko'rsatilib, adabiy aloqalarni yanada rivojlantirishning ilmiy-amaliy jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek-qoraqalpoq adabiy aloqalari, badiiy tarjima, tarjimashunoslik, adabiy an'ana, adabiy ta'sir, adabiy hamkorlik, milliy kolorit, qardosh xalqlar, adabiyotlar do'stligi.

Аннотация. В данной работе исследуются многовековые литературные связи между узбекским и каракалпакским народами, их исторические корни и этапы развития. Также раскрывается важность литературной традиции, литературного влияния и литературного перевода в сближении литератур двух братских народов. Наряду с достижениями в области перевода, освещаются существующие проблемы, а также научные и практические аспекты дальнейшего развития литературных связей.

Ключевые слова: узбекско-каракалпакские литературные связи, литературный перевод, переводоведение, литературная традиция, литературное влияние, литературное сотрудничество, национальный колорит, братские народы, литературная дружба.

Annotation. This thesis examines the centuries-old literary ties between the Uzbek and Karakalpak peoples, their historical roots and stages of development. It also reveals the importance of literary tradition, literary influence and literary translation in bringing the literatures of the two fraternal peoples closer together. Along with achievements in the field of translation, existing problems are also highlighted, and scientific and practical aspects of further developing literary ties are highlighted.

Key words: Uzbek-Karakalpak literary ties, literary translation, translation studies, literary tradition, literary influence, literary cooperation, national color, fraternal peoples, friendship of literature.

KIRISH

O'zbek va qoraqalpoq xalqlari ham necha asrlardan buyon birga yashab kelayotgan xalqlardir. Ular orasidagi munosabatlar tarixi ham ancha uzoqlarga borib taqaladi. Buyuk qoraqalpoq shoirlari Berdaq va Ajiniyozlar ham o'zbek adabiyotining sarchashmalaridan bahramand bo'lgan holda yetuk asarlar yaratganlar. Qoraqalpoq adabiyotining rivojiga, ayniqsa, ulug' bobomiz Alisher Navoiy ijodining ta'siri kuchli bo'lgan. Biz barcha buyuk shoirlar, katta ijodkorlar



ijodiga nazar tashlasak, ulardan hech birining ilmiy-adabiy an'analarga befarq qaraganligini ko'rmaymiz. Masalan, Alisher Navoiy ijodida butun Sharq adabiyoti an'analari hissasi sezilsa, Berdaq va Ajiniyoz, umuman, qoraqalpoq adabiyotida ham bu an'analarga seziladi. Ayni zamonda Alisher Navoiy o'zidan keyingi o'tgan shoirlarga ilg'or an'analari bilan ta'sir qilgan. Bunday an'analarning ikkinchi adabiyotda davom etishi ma'lum darajada tarjima asarlarining ko'plab yaratilishi bilan ham chambarchas bog'liqdir. O'rta Osiyo adabiyotlari, asosan, turkiy tillilar guruhiga mansub bo'lib, chegaralarning yaqinligi, tilining o'xshashligi, madaniy qiyofasidagi mushtarakliklar, og'zaki va yozma adabiyotlaridagi umumiy jihatlar, an'ana va urf-odatlardagi bir xillilik va muhimi, tarixiy ildizlaridagi tutashlik adabiy aloqalarning taraqqiyotida asosiy o'rin egallaydi. Xususan, o'zbek adabiyotining qolgan turkiy qardosh adabiyotlar, jumladan, qoraqalpoq adabiyoti bilan o'zaro aloqalari ham buning yorqin isbotidir. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: "Ikki xalq o'rtasidagi o'zaro hamjihatlikni yanada mustahkamlashda adabiy aloqalarning o'rni va ahamiyati beqiyos ekanini biz yaxshi anglaymiz. Adabiy do'stlik – abadiy do'stlikning eng yorqin namunasi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz"¹ deya haqiqatni ta'kidlaganliklarini alohida e'tirof etish lozim.

O'zbek va qoraqalpoq adabiy aloqalari xususida ilmiy ishlar olib borgan olim B.Qurbonboyev shunday yozadi: "General o'zbek shoiri Alisher Navoiyning o'lmas umri boqiy poeziyasi, uning yuksak gumanizm, xalqlar do'stligi, vatanparvarlik tuyg'ulari payvand etilgan xalqchil va haqgo'y she'riyati O'rta Osiyodagi va undan tashqaridagi ko'pgina xalqlar qalbini rom rom etgan"².

Har bir milliy adabiyotda baynalmilalchilik, do'stlik g'oyalariga sadoqatli, ijodiy taqdirini boshqa milliy adabiyotlar bilan ham mustahkam bog'lab Qalam tebratadigan so'z ustalari bo'ladi. G'afur G'ulom, Jo'lmirza Aymurzayev, Mirtemir, I.Yusupov, T.Qaypbergenov kabi adiblar ana shunday ulug' fazilatli insonlar edi. 50-70-yillardagi o'zbek va qoraqalpoq adabiy aloqalarini tilga olingan so'z zargarlari ijodisiz, ularning o'zaro do'stona munosabatlarisiz tasavvur qilish qiyin. Bu singari adiblar uzoq yillar ma'naviy manfaatlarimiz uchun ijodiy hamkorlik qilishdi. Bu aloqalar yillar o'tgan sayin shaxsiy do'stlikka aylanib, xalqlarimiz va adabiyotlarimiz taraqqiyotiga xizmat etdi. Do'stlik munosabatlarini umrlarining oxirigacha davom ettirdi. Garchi, bu tabarruk siymolar bugun hayot bo'lmasalar-da, ulardan qolgan meros shaxsiy adabiy do'stlik aloqalari, an'analarga adabiyotlarga quyosh shu'lasidek nur sohib turibdi. Adabiyotshunos olim B.Karimov aytganidek, "Adabiy jarayonda, yon-atrofimizda shunday iste'dodli ijodkorlar borki, ularning

¹ Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. (2-жилд). – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2018. – 339 б.

² Курбонбоев Б. «Бердақ». Тошкент, «Фан» нашриёти, 1977 йил.



o‘zlari ham, asarlari ham tirik. Hozirda jisman va ruhan tetik. Ular o‘zini, o‘zligini, kimligini, “men” ligini, darajasini, o‘rnini qaysidir ma‘noda juda yaxshi anglaydi. Ruhi jonidan asarlari umrboqiylik quvvatini oladi; tiriklik suvini ichadi. Mabodo bu toifa ijodkorlar ajali yetib, fano diyoriga yo‘l olsalar ham, asarlari uzoq umr ko‘radiganga, ko‘rkam haq so‘zi uchun qalam egalariga rahmat eshigidan savobi yetib turadiganga o‘xshaydi”³. Ijodiy faoliyati davomida qardosh adabiyotlar manfaati uchun sidqidildan qalam tebratgan, butun hayoti davomida ham shaxsiy, ham adabiy faoliyati bilan baynalmilalchi bo‘lgan, ana shu muqaddas g‘oyaga sodiq qolib, ajoyib asarlar yaratgan, xayrli ishlarni amalga oshirgan ijodkorlar hamma adabiyotlarda ham mavjud bo‘lib, bunday ijodkorlar sabab xalqlar o‘rtasida adabiy do‘stlik, hamkorlik hamisha mangu bo‘ladi.

Fikrimizni davomi sifatida aytish joizki, adabiy aloqa jarayonida adabiy an‘ana, adabiy ta‘sir muhim hisoblanib, bu kabi holatlar qay darajada faol olib borilsa, boshqa adabiyotlarning badiiy tajribalari ilmiy-ijodiy o‘zlashtirilsa, albatta, adabiyotshunoslikda yangiliklar, badiiy-adabiy kashfiyotlar yuzaga keladi. Xususan, G‘.G‘ulom an‘analarining qoraqalpoq adabiyotida, I.Yusupov an‘anasi o‘zbek ijodkorlari faoliyatida ijodiy o‘zlashtirilsa, yoki T.Qaypbergenovning tarixiy romanchilikdagi poetik mahorati o‘zbek yozuvchilari uchun ijodiy tajriba o‘laroq, adabiy an‘ana, o‘zaro tajriba almashish va adabiy ta‘sir natijasi sifatida o‘z aksini ko‘rsatadi. Bu kabi jihatlarga diqqat qaratish va uni targ‘ib qilish, badiiy mahoratini ochib berish ham amaliy, ham nazariy muhim vosita sifatida qaraladi. Demak, o‘zbek adabiyotshunoslarining Berdaq, Ajiniyoz, I.Yusupov, T.Qaypbergenov ijodi xususidagi olib borgan tadqiqotlari, qoraqalpoq adabiyotshuno olimlarining Alisher Navoiy, G‘.G‘ulom, Mirtemir, A.Muxtorlar haqidagi ilmiy izlanishlari adabiy aloqalarining yorqin sahifalari bo‘la oladi.

XULOSA

Ko‘rinib turibdiki, ko‘p yillik tarixga ega bo‘lgan tarjima yildan yilga taraqqiy topmoqda. Xalqlar do‘stligida qudratli vositaga aylanib, adabiyotimizda borgan sari muhim o‘rin egallamoqda. Ammo tanganing ikkinchi tarafini ham unutmaslik lozim. bu sohada ham yetarlicha muammolar mavjud. Ayniqsa, o‘zbek va qoraqalpoq tarjimachiligida ikki adabiyotdan qilingan tarjima asarlarning soni ko‘p, ammo saviyasini batamom mukammal deya olmaymiz. Ba‘zi “tarjimon”larning asliyat tilini puxta bilmasligi, kasbiy mahorati va tajribasining sustligi tarjimalarning sifatini tushirib yubormoqda. To‘g‘ri, Qoraqalpog‘istonda istiqomat qilayotgan nosir va shoirlar ikki tilni yaxshiroq bilishi boshqa hududagi o‘zbeklarga nisbatan ularga

³ Карим Б. Рухият алифбоси.- Тошкент: Ф.Фулом, 2018. – Б. 255



tarjima jarayonida keng imkoniyatlar yaratadi. Ularda ko‘proq qoraqalpoq milliy koloriti nisbatan ustuvor va tabiiydek taassurot uyg‘otadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. (2-жилд). – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2018.
2. Карим Б. Рухият алифбоси.- Тошкент: Ғ.Ғулом, 2018.
3. Қурбонбоев Б. «Бердақ». Тошкент, «Фан» нашриёти, 1977.

